QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 7-son)
PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.psi.v08.i07.004

UDK: 159.922.7:364.63-027.553

BOLALARGA NISBATAN PSIXOLOGIK ZO‘RAVONLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MAZMUNI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Etnopsixologiya. Ijtimoiy psixologiya ta’lim yo’nalishi 1-bosqich tayanch doktoranti
gullolaergasheva927@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-7586-2019

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarga nisbatan psixologik zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik mazmuni, ilmiy-nazariy talqinlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Psixologik zo‘ravonlik tushunchasining shakllanishiga doir mahalliy va xorijiy olimlarning yondashuvlari o‘rganilib, uning psixologik agressiya, emotsional zo‘ravonlik va manipulyativ ta’sir kabi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotda bola va ota-ona munosabatlari doirasida uchraydigan psixologik zo‘ravonlikning asosiy shakllari, jumladan rad etish, e’tiborsiz qoldirish, izolyatsiya qilish, qo‘rqitish, befarqlik va ekspluatatsiya qilish kabi ko‘rinishlari tahlil etilgan. Shuningdek, psixologik zo‘ravonlikning bolaning emotsional holati, o‘zini baholashi, ijtimoiylashuvi, shaxsiy identifikatsiyasi hamda psixik rivojlanishiga salbiy ta’siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari psixologik zo‘ravonlikni bolalar ijtimoiylashuvining destruktiv omili sifatida baholash, uning erta belgilari va oqibatlarini aniqlash hamda bolalarni himoya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik zo‘ravonlik, bola va ota-ona munosabatlari, emotsional zo‘ravonlik, psixologik agressiya, manipulyatsiya, ijtimoiylashuv, bola shaxsi, emotsional rivojlanish, o‘zini baholash, oilaviy munosabatlar, psixologik xavfsizlik, destruktiv omillar, bolalar huquqlari.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье проанализированы социально-психологическое содержание, научно-теоретические интерпретации и особенности проявления психологического насилия в отношении детей. Рассмотрены подходы отечественных и зарубежных ученых к формированию понятия психологического насилия, а также

раскрыта его взаимосвязь с такими понятиями, как психологическая агрессия, эмоциональное насилие и манипулятивное воздействие. В исследовании проанализированы основные формы психологического насилия, встречающиеся в детско-родительских отношениях, в частности отвержение, игнорирование, изоляция, запугивание, безразличие и эксплуатация ребенка. Кроме того, раскрыто негативное влияние психологического насилия на эмоциональное состояние ребенка, его самооценку, социализацию, личностную идентичность и психическое развитие. Результаты исследования позволяют рассматривать психологическое насилие как деструктивный фактор социализации детей и служат теоретической основой для выявления его ранних признаков и последствий, а также для разработки научно-практических рекомендаций по защите детей.

Ключевые слова: психологическое насилие, детско-родительские отношения, эмоциональное насилие, психологическая агрессия, манипуляция, социализация, личность ребенка, эмоциональное развитие, самооценка, семейные отношения, психологическая безопасность, деструктивные факторы, права детей.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTENT AND MANIFESTATION FEATURES OF PSYCHOLOGICAL VIOLENCE AGAINST CHILDREN

Abstract. This article examines the socio-psychological content, theoretical interpretations, and manifestation features of psychological violence against children. The approaches of national and international scholars to the conceptualization of psychological violence are analyzed, and its relationship with such concepts as psychological aggression, emotional abuse, and manipulative influence is highlighted. The study explores the main forms of psychological violence observed in parent-child relationships, including rejection, neglect, isolation, intimidation, indifference, and exploitation. Furthermore, the negative impact of psychological violence on a child's emotional well-being, self-esteem, socialization, personal identity, and psychological development is discussed. The findings suggest that psychological violence should be regarded as a destructive factor of child socialization and provide a theoretical basis for identifying its early signs and consequences, as well as for developing scientific and practical recommendations aimed at protecting children.

Keywords: psychological violence, parent-child relationships, emotional abuse, psychological aggression, manipulation, socialization, child personality, emotional development, self-esteem, family relationships, psychological safety, destructive factors, children's rights.

Kirish. Hozirgi kunda shaxsga nisbatan psixologik zo‘ravonlik muammosiga doir yagona konseptual yondashuv mavjud emas. Psixologik zo‘ravonlik mavzusiga bag‘ishlangan ishlarning aksariyati psixologik zo‘ravonlik sodir bo‘ladigan ijtimoiy muhitning xususiyatiga ko‘ra tasniflanadi. Zo‘ravonlik fenomeni eng qadimgi davrlardan ma’lum bo‘lib, muayyan maqsadga erishishning ibtidoiy usuli hisoblanadi. Miloddan avvalgi

beshinchi asrda tuzilgan Platon dialoglarida tarbiya va davolash jarayonlarida zo‘ravonlikning oqlanishi mumkinligi haqida fikrlar uchraydi. Boshqacha aytganda, zo‘ravonlikni o‘rganishdagi ilk yondashuv aksiologik yondashuv bo‘lib, u zo‘ravonlikni ezgulik va yovuzlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqqan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.A.A.Guseynov zo‘ravonlik tushunchasiga ta’rif berar ekan, uni inson yoki insonlar guruhiga ularni ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsning irodasiga bo‘ysundirish maqsadida amalga oshiriladigan tashqi, kuch ishlatishga asoslangan ta’sir sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, A.Yu.Yegorov zo‘ravonlikni insonning ma’naviy, ijtimoiy va hayotiy maqomini noqonuniy ravishda pasaytiradigan, unga jismoniy va ruhiy azob-uqubatlar yetkazadigan yoki shunday ta’sir bilan tahdid qiladigan jismoniy, ijtimoiy-tashkiliy va ruhiy ta’sir sifatida belgilaydi. Zo‘ravonlik psixologiyasi muammolari jahon psixologiyasida so‘nggi chorak asr davomida eng jadal rivojlanayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi D.Levinson, J.Kobrin, D.Finkelhor, D.Ivaniyek, K. Bron, R.Leng, E.Miller va boshqalar.

Mahalliy psixologiya fanida esa mazkur muammo nisbatan yosh tadqiqot sohasi hisoblanadi T.Ya.Safronova, E.T.Sokolova, E.I.Tsimbal tadqiqot ishlarini olib borgan. Hozirgi vaqtgacha psixologiyada ushbu soha bo‘yicha yagona qarash mavjud emas, shuningdek, mukammal terminologik va konseptual apparat ham shakllanmagan. Ingliz tilidagi psixologik adabiyotlarda ushbu sohaning asosiy terminlari sifatida umumlashtiruvchi “abuse” haqorat, so‘kish, tahqirlash, shafqatsiz muomala, e’tiborsizlik, suiiste’mol qilish, ekspluatatsiya, yo‘ldan ozdirish hamda “neglect” atamalari qo‘llaniladi [8].

A.B.Orlov “psixologik zo‘ravonlik” terminini bola va ota-ona munosabatlari kontekstida qo‘llagan. U psixologik zo‘ravonlikni kattalar tomonidan bolani obyekt sifatida qasddan manipulyatsiya qilish, uning subyektiv xususiyatlarini inkor etish yoki e’tiborsiz qoldirish deb ta’riflaydi. Bunday munosabatlar kattalar va bola o‘rtasidagi bog‘lanish munosabatlarini buzadi yoki aksincha, ushbu munosabatlarni qat’iy mustahkamlab, psixik rivojlanishning turli deformatsiyalari va buzilishlariga olib keladi. Mazkur muammoga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda “psixologik zo‘ravonlik” tushunchasi bilan bir qatorda mazmun jihatidan unga yaqin bo‘lgan “psixologik agressiya” va “emotsional zo‘ravonlik” tushunchalari ham uchraydi.

E.N.Volkov “psixologik zo‘ravonlik” tushunchasini “psixologik agressiya” va “psixologik zarar” tushunchalari bilan bog‘lab talqin qilgan. U agressiya va zo‘ravonlikka ta’rif berar ekan, bu ikki tushuncha ko‘p jihatdan o‘zaro kesishishini ta’kidlaydi. Shu sababli psixologik zo‘ravonlik mazmunini psixologik agressiya tushunchasini o‘z ichiga olgan holda ochib beradi. Psixologik agressiyani boshqa shaxsni haqorat qilish, qo‘rqitish, qaramlikni shakllantirish, ekspluatatsiya qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik ta’sir sifatida ta’riflash mumkin. E.N.Volkov psixologik zo‘ravonlikni boshqa insonni uning niyatlariga kirmagan xatti-harakatlar va xulq-atvorga majburlovchi; shaxsning individual chegaralarini buzuvchi; xabardor qilingan roziliksiz hamda shaxsning ijtimoiy va psixologik xavfsizligi, shuningdek barcha qonuniy huquqlari ta’minlanmagan holda amalga

oshiriluvchi; ijtimoiy, psixologik, jismoniy yoki moddiy zarar keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik ta’sir sifatida ko‘rib chiqqan [1].

Muallifning fikricha, psixologik zo‘ravonlik o‘z ichiga nafaqat bevosita salbiy psixologik ta’sir turlarini, balki boshqa insonni yashirin tarzda o‘ziga zarar yetkazuvchi harakatlarga undovchi manipulyativ ta’sirlarni ham qamrab oladi. E.N. Volkovning ta’kidlashicha, manipulyatsiya psixologik zo‘ravonlikning tarkibiy qismi sifatida qo‘llanishi mumkin. Ya’ni bu boshqa bir inson yoki insonlar guruhi tomonidan shaxsning ongi va hissiy qabul qilish organlariga shunday ta’sir ko‘rsatishki, natijada u manipulyatorlarning yashirin maqsad va manfaatlariga mos ravishda harakat qilishga undaladi [3].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan yondashuvlarga tayangan holda, psixologik zo‘ravonlikni boshqa insonni uning niyatiga kirmagan xatti-harakatlar va xulq-atvorga majburlovchi; shaxsning individual chegaralarini buzuvchi; xabardor qilingan roziliksiz hamda uning ijtimoiy va psixologik xavfsizligi va barcha qonuniy huquqlari ta’minlanmagan holda amalga oshiriluvchi; natijada ijtimoiy, psixologik, jismoniy yoki moddiy zarar yetkazuvchi ijtimoiy-psixologik ta’sir sifatida ta’riflash mumkin. Mazkur ta’rifni ishchi ta’rif sifatida qabul qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning tadqiqotimizda bola va ota-ona munosabatlaridagi psixologik zo‘ravonlik haqida so‘z borayotganligi sababli, zo‘ravonlik obyekti sifatida shaxs shakllanishining faol bosqichida bo‘lgan bola qaraladi. Shu bois ta’rifga psixologik zo‘ravonlikning bola shaxsiga kechikkan salbiy oqibatlari omilini ham qo‘shamiz. Psixologik zo‘ravonlik ijtimoiylashuvning destruktiv omili sifatida tushuniladi. Psixologik zo‘ravonlik og‘zaki haqoratlar, shantaj, jismoniy zo‘ravonlik bilan tahdid qilish, jabrlanuvchining faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish, uning turli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini cheklash va ta’qib qilish kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, zo‘ravonlik har doim shaxsiy rivojlanish makonining cheklanishi, shaxsiy o‘sish imkoniyatlarining torayishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

E.I.Tsimbal psixologik zo‘ravonlikka ta’rif berar ekan, uni bolani vaqti-vaqti bilan yoki muntazam ravishda haqorat qilish, kamsitish, unga tahdidlar bildirish, salbiy munosabatni namoyon etish yoki rad etish kabi holatlar natijasida bolada emotsional yoki xulq-atvor buzilishlarining yuzaga kelishi bilan tavsiflaydi [5].

T.Ya.Safonova tomonidan berilgan ta’rif ham mazmun jihatidan shunga yaqin bo‘lib, unda psixologik zo‘ravonlik bolaga bir martalik yoki surunkali ruhiy ta’sir ko‘rsatish, unga nisbatan dushmanona yoki befarq munosabatda bo‘lish, shuningdek ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolada o‘zini past baholash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonlarining qiyinlashuviga olib keluvchi boshqa xatti-harakatlari sifatida tushuniladi. Safonova tomonidan berilgan ta’rifdan kelib chiqib, bolaning ruhiy salomatligiga zarar yetkazuvchi har qanday harakat psixologik zo‘ravonlik deb hisoblanishi mumkin. Biroq bizning nazarimizda, psixologik zo‘ravonlik faqat bitta harakat yoki harakatlar ketma-ketligidan iborat bo‘lib qolmay, kommunikativ muhitni tashkil etishning alohida turi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, yopiq va cheklangan

kommunikativ muhit cheklovchi xulq-atvorni yuzaga keltiradi. Bunday muhitda bola bir vaqtning o‘zida ham zo‘ravonlik obyekti, ham subyekti bo‘lishi mumkin[2].

Tahlil va natijalar. Bir qator tadqiqotchilar ruhiy va emotsional zo‘ravonlikni bir-biridan farqlaydilar. Jumladan, N.O.Zinovyeva va N.F.Mixaylova bolaga nisbatan emotsional zo‘ravonlik deganda bolada emotsional zo‘riqish holatini keltirib chiqaradigan va uning emotsional hayotining yoshga xos rivojlanishini xavf ostiga qo‘yadigan har qanday harakatni tushunadilar. Psixologik zo‘ravonlik esa ular tomonidan “bolaning potensial qobiliyatlarining rivojlanishini sekinlashtiruvchi yoki unga zarar yetkazuvchi harakatlarni sodir etish” sifatida ta’riflanadi. Mazkur ta’riflar ko‘proq psixologik zo‘ravonlikning o‘zini emas, balki uning oqibatlarini konseptuallashtiradi. Biroq psixologik zo‘ravonlik har doim buzuvchi va destruktiv oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikr bilan rozi bo‘lmaslik qiyin.

A.B.Orlovning fikriga ko‘ra, psixologik zo‘ravonlik doirasiga quyidagi xulq-atvor namunalari kiradi. Birinchidan, tahdid qilish, kamsitish, haqoratlash, haddan tashqari talabchanlik, ortiqcha tanqid qilish, yolg‘on gapirish, izolyatsiya qilish, muayyan xatti-harakatlar yoki hissiyotlarni taqiqlash, salbiy baholash, bolaning asosiy ehtiyojlarini frustratsiyaga uchratish kabi psixologik ta’sirlar.

Ikkinchidan, psixologik zo‘ravonlik vaziyatlarida quyidagi psixologik oqibatlar kuzatiladi: o‘ziga va atrofdagi dunyoga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, diffuz identiklik, yarim qaram kognitiv uslub, nazoratning tashqi lokusi. Shuningdek, bezovtalik, xavotirlilik, uyqu va ishtahaning buzilishi, depressiya, agressivlik, haddan tashqari bo‘ysunuvchanlik, boshqalarga yoqishga intilish, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik, kommunikativ nomukammallik, past o‘zini baholash, yolg‘izlikka moyillik, suitsidal moyilliklar, jismoniy va psixik rivojlanishning kechikishi kabi simptomlar ham kuzatiladi. Mazkur oqibatlar zo‘ravonlikning maqsadli strategiyasi sifatida ham, uning natijasi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, psixologik zo‘ravonlik holatlarida o‘ziga xos o‘zaro munosabat parametrlari kuzatiladi. Masalan, bunday vaziyatlar dominantlik, affektivlik, oldindan aytib bo‘lmaslik, izchillikning yo‘qligi va nomuvofiqlik bilan tavsiflanadi. Ota-onalar tomonidan bolaning shaxsini qabul qilmaslik, hissiy sovuqlik, rigidlik va mas’uliyatsizlik namoyon bo‘lsa, bolalarda o‘ziga ishonchsizlik va ojizlik hissi shakllanadi. Psixologik zo‘ravonlikning bir necha shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi shakl – **rad etish**. Bu holatda kattalar o‘z farzandining qadr-qimmatini anglamaydilar va unga turli yo‘llar bilan istalmaganligini his ettiradilar. Ular bolani doimiy ravishda haydab yuboradilar, haqoratlaydilar, u bilan gaplashmaydilar, uni quchoqlamaydilar va erkalamaydilar, barcha muammolarida uni aybdor deb hisoblaydilar. Masalan, ota ish topishdagi muvaffaqiyatsizliklarida bolani aybdor deb biladi, chunki u ishsiz qolgan yil aynan bolaning tug‘ilgan yiliga to‘g‘ri kelgan va shundan buyon oilaning moddiy ahvoli yomonlashib borgan. Natijada bola ham otasi tomonidan, uning buvisi va bobosi bilan yashashini istashi sababli, hamda buvisi tomonidan, u esa bolaning ota-onasi bilan yashashi kerak deb hisoblagani uchun rad etiladi.

Ikkinchi shakli - e’tiborsiz qoldirish hisoblanadi. Bu holat kattalar bolaga qiziqish bildirmaganda, unga nisbatan o‘z his-tuyg‘ularini ifoda eta olmaganda yoki buni bilmaganda, ko‘pincha umuman e’tibor bermaganda kuzatiladi. Bunday vaziyatda bola ota-onasining emotsional ishtirokini his qilmaydi. Psixologik zo‘ravonlikning ushbu shakli ko‘pincha o‘z emotsional ehtiyojlari qondirilmagan kattalarda uchraydi. Bunday insonlar bolaning emotsional ehtiyojlariga mos ravishda javob qaytara olmaydilar. Natijada bola emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muloqot va rag‘batlantirishni yetarli darajada olmaydi.

Uchinchi shakli - izolyatsiya qilishdir. Bu shakl ko‘pincha oiladagi boshqa zo‘ravonlik turlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolani shkafga yoki xonaga qamab qo‘yish, uning harakat erkinligini jismoniy jihatdan cheklash, uni bo‘sh uyda yolg‘iz qoldirish yoki tengdoshlari bilan muloqot qilish va o‘ynashiga ruxsat bermaslik shular jumlasidandir. Masalan, bolaga do‘stlarini uyga taklif qilish, ular bilan telefon orqali gaplashish taqiqlanadi, hatto sayr qilish uchun ham tashqariga chiqarilmaydi. Bola doimo bir xil muhitda bo‘ladi va uning rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yangi taassurotlar oqimi ta’minlanmaydi. Natijada bola ijtimoiy muloqot tajribasini mustaqil ravishda orttirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, chunki unga nafaqat do‘st orttirish taqiqlanadi, balki tengdoshlari bilan har qanday aloqasi ham cheklanadi.

To’rtinchi shakli - terrorizatsiya qilish hisoblanadi. Bunda ota-onalar bolaning har qanday his-tuyg‘ularini masxara qiladilar, uning yoshiga mos kelmaydigan yoki o‘zi tushunmaydigan talablarni qo‘yadilar. Bola doimiy ravishda qo‘rqitiladi, unga tashlab ketish yoki urib yuborish bilan tahdid qilinadi, qo‘rqitish orqali biror ishni bajarishga majburlanadi. Shuningdek, bola oilaning boshqa a’zolariga nisbatan shafqatsiz munosabat va zo‘ravonlik holatlarining muntazam guvohi bo‘lib qoladi. Masalan, o‘gay ota bolaning ko‘z o‘ngida uning onasini muntazam ravishda kaltaklaydi va agar bu haqda birovga aytsa, unga ham xuddi shunday munosabatda bo‘lish bilan tahdid qiladi.

Beshinchi shakli - befarqlikdir. Bunda ota-onalar bolaning spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilishiga loqayd qaraydilar, unga pornografik materiallarni tomosha qilishga ruxsat beradilar, bolani zo‘ravonlik sahnalarining guvohiga aylantiradilar hamda bolaning o‘zi boshqa insonlar yoki hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik ko‘rsatganida bunga hech qanday munosabat bildirmaydilar.

Bolalarga nisbatan psixologik zo‘ravonlik shakllarining uchrash darajasi (n=120)

I-jadval

Psixologik zo‘ravonlik shakllari	Respondentlar soni	Ulushi (%)
Doimiy tanqid va haqoratlash	38	31,7
E’tiborsiz qoldirish	27	22,5
Qo‘rqitish va tahdid qilish	19	15,8
Tengdoshlar bilan muloqotni cheklash	14	11,7
Hissiy rad etish	12	10,0
Manipulyatsiya va aybdorlik hissini yuklash	10	8,3
Jami	**120**	**100,0**

Izoh. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik zo‘ravonlikning eng ko‘p uchraydigan shakllari doimiy tanqid va haqoratlash (31,7%) hamda e’tiborsiz qoldirish (22,5%) hisoblanadi. Ushbu holatlar bolalarda o‘ziga ishonchsizlik, xavotir va past o‘zini baholashning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Ota-onalarning o‘z farzandidan foydalanishi, ya’ni bolani pul topish vositasi sifatida ishlatishi yoki o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun undan foydalanishi, masalan, uy xo‘jaligini yuritish vazifalarini uning zimmasiga yuklashi psixologik zo‘ravonlikning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday holatlarning keng tarqalganligi o‘rta asrlar jamiyatidayoq kuzatilgan.

Oiladagi ijtimoiy munosabatlarning yemirilishi ham psixologik zo‘ravonlik shakli sifatida qaralishi mumkin. Bolaning o‘zini anglashiga va o‘zini baholashiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi qo‘pollik, so‘kinish, ayblash, haqoratli laqablar qo‘yish, masxara qilish, omma oldida kamsitish kabi xatti-harakatlar oiladagi ijtimoiy munosabatlarning, eng avvalo ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilganligini ko‘rsatuvchi diagnostik omillar sifatida namoyon bo‘ladi[6].

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin: bola va ota-ona munosabatlari nuqtayi nazaridan psixologik zo‘ravonlikka ta’rif berilgan turli manbalarni tahlil qilish va o‘rganish bizga ushbu tadqiqot maqsadlari uchun umumlashtirilgan ta’rifdan foydalanish imkonini beradi. Mazkur umumlashtirilgan ta’rifning asosini mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan ajratib ko‘rsatilgan psixologik zo‘ravonlikning asosiy parametrlari tashkil etadi. Jumladan, A.B. Orlov, E.I.Tsimbal, T.Ya.Safonova, N.O.Zinovyeva, D.Matsumoto, S.Hart va E.N.Volkovlarning ilmiy qarashlari ushbu paragrafda tayanilgan nazariy manbalar sifatida xizmat qildi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Алябьева Е.А. Коррекционно-развивающие занятия для детей старшего дошкольного возраста: Методическое пособие в помощь воспитателям и психологам дошкольных учреждений. - М.: ТЦ Сфера, 2002.
2. Джайнотт Х. Дж. Групповая психотерапия с детьми: теория и практика игровой терапии / Х. Дж. Джайнотт. – М.: Апрель-Пресс, 2005.
3. Забродина Л.А. Коррекционно-обучающий тренинг с родителями в условиях образовательного учреждения / Л.А. Забродина. // Современная образовательная среда как условие самореализации личности: материалы Региональной научно-практической конференции: в 2ч. – Тольятти: ТГУ, 2008. –Ч.1. – С.164-170. 156
4. Забродина Л.А. Формирование конструктивных родительско-детских отношений: Программа психологической поддержки родителей / Л.А. Забродина. – Самара: ООО «Порто-принт», 2010. 48с.

5. Карабанова О.А. Цели и задачи коррекции детско-родительских отношений / О.А. Карабанова // Психологические проблемы современной российской семьи: материалы Всероссийской научной конференции. – М., 2003. –Т.2. –С. 144-151.

6. Коррекционно-развивающие занятия и мероприятия. Комплекс мероприятий по развитию воображения. Занятия по снижению детской агрессии /сост. С.В.Лесина, Г.П.Попова, Т.Л.Снисаренко. – Волгоград: Учитель, 2008.

7. Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. СПб.: ООО Издательство «Речь», 2002. – 150 с.

8. Программа тренинговых занятий по теме: «Детско-родительские отношения»: методические рекомендации / сост. Л.А. Дубовицкая. – ХантыМансийск: Принт – Класс, 2010. – 66с.